

O'ZBEKISTON HUDUDIDA HARAKATLANUVCHI ELEKTRAVOZLAR



Mahkamov R.J (rahbar) - Toshkent Avtomobil Yo'llari texnikumi
Agsatov Ruslan (talaba) - Toshkent Avtomobil Yo'llari texnikumi

Annotatsiya: “O'zbekiston Temir Yo'llari” Aksiyadorlik Jamiyati, Elktrovoz,
Teplavozlar kelib chiqish tarixi

Kalit so'zlar: Elektravoz, Teplovoz

Kirish

2017 yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi davomida Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari bilan uch rashdi. Aynan ana shu anjumanda Davlatimiz rahbari Xitoyning “China Railway Tunnel Group” kompaniyasiga Angren – Pop temir yo'lining Qamchiq dovoni qurilishining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi uchun alohida minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, mazkur tashrif doirasida ko'plab sohalar, xususan, transport va kommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish borasida “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati bilan XXRning etakchi quruvchi kompaniyalari o'rtasida samarali kelishuvlarga erishildi.

Bugungi kunda ushbu temir yo'l orqali Toshkent – Andijon – Toshkent yo'nali shida har kuni zamnaviy tezyurar yo'lovchi poezdlari aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Andijon – Buxoro – Andijon yo'nali shida haftasiga ikkita yo'lovchi poezdi, haftada bir marotaba Andijon – Urganch – Andijon, Andijon – Moskva – Andijon yo'nali shlarida yo'lovchi poezdlari qatnovi tashkil etildi. Bundan tashqari, bir sutkada o'nlab yuk poezdi Angren – Pop elektralashtirilgan temir yo'li orqali o'tib, yuklarni o'z manziliga etkazmoqda.

Xususan, mazkur temir yo'l orqali, bir yil davomida 413 ming 162 nafardan ortiq yo'lovchiga xizmat ko'rsatildi, 7395,6 ming tonna yuk tashildi. Shuningdek, 1718 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishni takomillashtirish maqsadida hukumat ko'magida “Yo'lovchi lokomotivlar parkini yangilash” investitsion loyihasini amalga oshirish yakunladi. Ushbu loyihami amalga oshirish natijasida lokomotiv parki 15 ta yo'lovchi elektrovozlarga ko'paydi.

Vatanimiz o'tmishi buyuk xar bir soxani o'ziga yarasha shon-shuxratli olis o'tmishga borib taqaladigan tarixi bor. Xususan temir yo'llar soxasida xam, vatanimizga birinchi bor temir yo'l izlari 1888 yildan kasbiy orti davlatlaridan kirib kelgan. Keyinchalik Samarqand, Andijon viloyatlariga yetib boradi. Mustaqillik yillardan so'ng temir yo'l soxasida xam katta islohatlar davri boshlandi. 1994 yilning 7 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-982 sonli farmoni asosida, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan temir yo'l transporti tarmoq qismlarning, korxona, tashkilot va muassasalari tarkibida, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi tashkil etilgan.

2001 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan va Vazirlar Mahkamasining temir yo'l transportini isloh qilish bo'yicha Davlat dasturiga muvofiq, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat unitar korxonasi, 100% davlat ulushi bo'lgan ochiq aksiyadorlik jamiyatga aylantirildi.

Sohaning asosiy vazifalari yagona temir yo'l transport tarmog'ini modernizatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirish, qatnayotgan temir yo'l texnikalarni yangilash va o'zining ta'mirlash bazasini yaratish, dunyo bozoriga chiqish uchun imkon beradigan muqobil transport yo'laklarini izlab topish, tranzit yuk va boshqa qo'shimcha hajmlarini jalg qilish va h.k. belgilab berilgan. Bu bilan infratuzilmani, Yagona dispatcherlik markazi, lokomotiv ho'jaligi, yuk hujjatlari bilan ishlash bo'linmalarini va qutqaruv-qayta tiklash ishlari bo'linmalarini xususiyashtirishmaslik belgilangan. Shu bilan bir vaqtida, tovar-yuk va yo'lovchilar tashish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, yo'lovchi va yuk jo'natuvcilariga transport-ekspeditorlik va servis xizmatini ko'rsatuvchi, turli hil servis kompaniyalari va h.k.lar turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil qilinishlari va raqobat asosida faoliyat olib borishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi №PQ-4720 sonli qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida hamda 2015 yil 3 apreldagi kompaniya Kengashi va yagona aksioner umumiyligida «O'zbekiston temir yo'llari» Davlat aksionerlik temir yo'l kompaniyasi «O'zbekiston temir yo'llari» Aksiyadorlik Jamiyatiga o'zgartirildi.

Ayni paytda, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ yig'ma balansida infratuzilma va harakatlanuvchi tarkib (yuk vagonlari va lokomotivlar) bo'lganligi sababli vertikal integrashlashgan jamiyat hisoblanadi.

Jamiyat tarkibiga yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan 6 ta Mintaqaviy temir yo'l uzellari kiradi. Ularga stansiyalar, yo'l masofalari, signalizasiya va aloqa, energota'minot, lokomotiv va vagon depolari, vagonlarni texnik va tijorat tekshirish punktlari kiradi.

2002 yilda islohot jarayonida, bir qator korxonalar Ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga o'zgartirildi: konteynerlarda yuk tashish bo'yicha "O'ztemiryo'lkonteyner" OAJ, muzlatgich bo'limlarda tez buziluvchan mahsulotlarni tashish bo'yicha "Yo'lreftrans" OAJ, xalqaro, mahalliy va shahar atrofiga yo'lovchilarni tashish bo'yicha "O'ztemiryo'lyo'lovchi" OAJ, yuk vagonlarini ta'mirlash bo'yicha "O'ztemirvagon" OAJ, yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash bo'yicha "TashVQTZ" OAJ.

Olib borilayotgan islohotlar menejmentni takomillashtirishga, boshqaruvning korporativ usullarini joriy etishga, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining oshishiga, ularning sifatini oshirishga, investitsiyalarni jalg qilishga, sof daromadni oshirishga va asosiy kapitalga kapital qo'yilmalarning muayyan o'sishiga sabab bo'ldi.

Mustaqillik yillari davomida O'zbekistonda yangi po'lat izlarni (magistral) shakllantirish bo'yicha ulkan ishlar qilindi. Qizilqum cho'llarida Navoiy-Uchquduq-Sultonuvaystog'-Nukus temir yo'llari qurildi, Amudaryo orqali temir yo'l-avtomobil qo'shma ko'prigi barpo etildi, murakkab tog' sharoitida Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li qurildi.

Elektravoz o'zi nima qachon va qayerda birinchi marotaba o'ylab topilgan???????

Elektrovoz [elektro-tok va ruscha. voz (it) — tashimoq] — asosan, kontakt tarmog'i, ba'zan o'ziga o'rnatilgan akkumulyatorlar yoki faqat akkumulyatorlardan energiya oladigan lokomotiv. Vazifasiga ko'ra, magistral (yuk, yo'lovchi va yukyo'lovchilarga mo'ljallangan), manyovrchi, sanoat va konlarda ishlatiladigan, foydalaniladigan tok turiga ko'ra, o'zgarmas va o'zgaruvchan tokda ishlaydigan turlarga bo'linadi. E.ga mexanik va elektr jihozlar o'rnatiladi. Mexanik qismiga kuzov, ramalar, g'ildiraklar, tortish yuritmasi, ressoralar, tormoz qurilmalari, elektr qismiga dvigatellar va boshqalar apparatlar kiradi. Magistral yo'lovchi E.larning tezligi soatiga 200 km va undan yuqori, yuk E.lariniki 110—120 km, E.lar dvigatelining quvvati 6500 kVt ga yetadi. O'zgarmas tok E.ining f.i.k. 86 — 87%. Birinchi magistral E. 1932-yilda Rossiyada yasalgan, keyinchalik takomillashtirib borilgan. E.ning tortish kuchini oshirish uchun bir-biriga ulangan bir necha E.dan foydalanish mumkin. Ular bitta (odatda, oldindagi) Elektravozdan boshqariladi. O'zbekiston temir yo'llarida ham teplovozlar bilan bir qatorda elektravozlar ham qatnaydi.

Yangi elektrovozlarning ta'mir aro umumiyo'y o'l bosish ko'rsatgichlaridagi yuqori ekspluatatsion tafsiflari, elektrovozlarini texnik xizmat ko'rsatish harajatlarini yog'-moy va boshqa yonilg'i komponentlarini kam iste'mol qilish hisobidan amalda yarim baravarigacha qisqartiradi. Yangi Toshguzar –Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi tog'li hududda qurilgan birinchi liniya hisoblanadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tabiiy chegarasi vazifasini o'tovchi 1800 m balandlikdagi tog'ni kesib o'tadi. 10-18,5 % qiyalikdagi yo'llarning uzunligi tahminan 64 kmni tashkil etadi, 5-10 % qiyalikda tahminan 35 km. Yangi temir yo'l qurilish trassasida 37 ta ko'priq, galereya va tunnel barpo qilingan.

Ko'priq qurilish zonalari kuchli ajralma relefli Hisor to'g tizmalari bilan ifodalanadi. Akravat dovoni yaqinida trassa Chashmaihafizan, Akravat, Sho'rav, Sherobod Daryo vodiylari bo'ylab o'tadi. Tog' qiyaliklari asosan 1.3-1 tikkalikka, daryo vodiylari- baland cho'qqilarning keskin o'zgarishlari va juda tik tog' yon bag'irlari 18,5% qiyalikka egadirlar.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mamlakatda uzun metall ko'priklarning qurilishi ilk bor amalga oshirilgan edi. Bizning mamlakatimizda metall ishlab chiqarish va o'rnatish tajribasi bundan oldin faqat bir misol bilan bog'liq bo'lgan va u Amudaryo ustidan o'tkazilgan ko'prikdir. Poezdlarning tezligini oshirish temir yo'l transportining asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Globallashuv va yuqori texnologiyalarning rivojlanish sharoitida temir yo'l orqali tashish xalqaro va mahalliy transport aloqlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni, yaxshi yo'lga qo'yilgan transport ko'magisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sanoat korxonalari, qurilish va qishloq xo'jaligining mehnat faoliyati, odamlarning kayfiyati va ularning mehnat samaradorligi ko'p jihatdan uning aniqliligi va ishonchlilikiga bog'liqdir.

Yo'lovchi tashish temir yo'l faoliyatining muhim qismidir. O'zbekiston Respublikasi Hukumati va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ mijozlarga xizmat ko'rsatish darjasini oshirish va yo'lovchi transportlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston kompleks transport tizimida yo'lovchi temir yo'l transporti aholiga xizmat ko'rsatishda yetakchi o'rinni egallaydi. Yo'lovchilarni tashish texnologik jarayoni aholiga ommabop xizmat ko'rsatish bilan uzviy bog'liqdir. Bu aholining tashishlardagi ehtiyojlari va transport vositalari mavjudligi o'rtasida muvozanatni saqlab qolishni doimo talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati yo'lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganligi bois, Ispaniya tomonidan Toshkent-Samarqand yo'nalishi bo'ylab tezyurar yo'lovchi tashish tashkil qilish bo'yicha taklif kiritildi.

2009 yilning iyul oyida, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ va "Talgo" kompaniyasi o'rtasida temir yo'l sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Bu Memorandum asosida tomonlar O'zbekiston Respublikasida tezyurar temir yo'l yo'lovchi tashish tashkil etish loyihalar va qo'shma tadqiqotlarda, shuningdek, yuqori tezlikdagi "Talgo" yo'lovchi poezdi sotib olish haqida hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Yangi tezyurar poezd nomi Afrosiyob bu – Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy shahar sharafiga qo'yildi.

2011 yil 8 oktyabrdan «Afrosiyob» (Ispaniya kompaniyasi Talgo) tezyurar poezdi Toshkent-Samarqand-Toshkent 161/162 sonli xabar bilan ishga tushirildi.

Yangi tezyurar poezd bu marshrut orqali xizmat ko'rsatadigan boshqa elektr poezdlar bilan birga, Toshkent va Samarqand shaharlari o'rtasida harakat qiladi. Yuqori tezlikdagi «Afrosiyob» poezdi ikki soat va o'n besh daqiqa ichida 344 km temir yo'l masofasini bosib o'tadi. Maksimal tezligi soatiga 250 kilometrni tashkil etadi.

«Afrosiyob» tarkibiga 2 ta lokomotiv va 9 ta qulay vagonlar kiradi:

Hozirga kelib "O'zbekiston Temir Yo'llari" Aksiyadorlik Jamiyatida juda 83 ming axolini bandilagini ta'minlab kelmoqda. Birgina 2022-yilni 1- yanvar holatiga ko'ra, temir yo'llarning uzunligi 7400 km. dan ortiq yuk tashish aylanmasi 24,6 mln t dan ortiq. Yo'lovchilarni tashish aylanmasi esa, 3130 mln iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etilganining 20 yilligi munosabati bilan mamlakatdagi barcha temiryo‘l xodimlariga qutlov yo‘lladi. Tabrikning to‘liq matni O‘zbekiston Milliy axborot agentligida e’lon qilindi.



"Afrosiyob" poyezdi. Foto:

Prezident o‘z qutlovida transport xizmatlarining darajasi va sifatini oshirishda temir yo‘l parkining harakatlanadigan tarkibini eng zamonaviy, yuksak samarali lokomotivlar va har tomonlama qulay vagonlar bilan yangilash bo‘yicha ishlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlab o‘tdi.

Qayd etilganidek, faqatgina so‘nggi o‘n yilda 38 ta zamonaviy elektrovoz va 10 ta yo‘lovchi tashish teplovozi sotib olindi, 150 ta lokomotiv modernizatsiya qilindi.

“Ispaniyaning ‘Talgo’ kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan, zamonaviy, yuqori tezlikda harakatlanadigan ‘Afrosiyob’ elektropoyezdi O‘zbekistonning g‘urur-iftixori hisoblanadi. Shuni aytish joizki, bunday poyezdlar dunyoning atigi sakkizta mamlakatida mavjud. Bugungi kunda ushbu poyezd har kuni Toshkent — Samarqand — Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha 344 kilometrlik masofani bor-yo‘g‘i ikki soatda bosib o‘tmoqda. Bu esa odamlarimizning ana shu transport turiga bo‘lgan munosabati va qarashlarini tubdan o‘zgartirmoqda”, — deyiladi tabrikda.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning lokomotiv parki joriy yil oxiriga qadar 3 ta, 2020 yilning birinchi choragida yana 2 ta 3ES5K elektrovozлari bilan to‘ldiriladi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJga investitsiyaviy loyihalar dasturiga ko‘ra, shu yil boshida Rossiyadan 2 dona 3ES5K rusumli yangi elektrovozlar keltirilgan edi. Ish faoliyati davomida mazkur elektrovoz mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazildi. Shu bois asosan yuk tortish uchun mo‘ljallangan lokomotivdan yana 5 ta olib kelish bo‘yicha shartnomalarni imzolangan.

Ma‘lumot o‘rnida: Zamonaviy yuk elektrovozi 1ming 520 mm temir yo‘llarda yurish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 3 ta seksiyadan iborat. Har bir seksiyada 4 ta g‘ildirak juftligi o‘rnatalgan. Elektrovozning tortish kuchi soatiga 9 ming 840 kilovatt tashkil etgan bo‘lsa, Xitoydan keltirilgan 1 ta seksiyali “O‘zbekiston” elektrovozining tortish kuchi soatiga 6 ming kilovatt edi.

Ko‘rinib turibdiki, mazkur lokomotiv boshqalarga nisbatan juda katta kuchga ega. Shuningdek, bir soatlik minimal yurish tezligi 49,9 kilometr/soatni tashkil etadi. Eng yuqori yurish tezligi 110 kilometr/soat Elektrovoz qishning izg‘irin sovug‘ida ham, yozning jaziramasida ham yurishga mo‘ljallangan. Lokomotiv kabinasi to‘liq kompyuterlashtirilgan bo‘lib, mashinist uchun barcha qulayliklar yaratilgan



Xulosa

Men bu maqolani yozish davrida bugungni ozod va obod vatanimizda “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasining lokomativ parki yangi tipdagi teplovozlar, elektrovozlar, elektropoyezd (seksiyalar)laridan tashkil topgan. “O‘ztemiryo‘lmashta’mirlash” unitar korxonasi Toshkent teplovoz ta’mirlash zavodida yirik magistral teplovozlar ta’mirlanadi, harakatlanuvchi tarkib uchun ehtiyyot qismlar ishlab chiqariladi. “O‘zvagonta’mir” aksiyadorlik jamiyatida barcha turdag‘i yuk tashish vagonlari ta’mirlanadi. 2001-yilda yo‘lovchi tashish vagonlarini ta’mirlaydigan “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini ta’mirlash zavodi” aksiyadorlik jamiyatini tashkil qilindi. 1998-yildan kompaniya tarkibida asosiy faoliyati shahar atrofi, shaharlararomahalliy va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi, pochta, qo‘l yuki tashishga ixtisoslashgan va bir kunda 10 mingdan ortiq fuqarolarga xizmat ko‘rsatadigan “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aksiyadorlik jamiyatini faoliyat ko‘rsatadi.

Foydanalingan adabiyotlar

1. A.Muhiddinov , J.Kulmuhammedov. “ Transport vositalarning tuzulishi “ Ta’lim nashriyoti-2019 y
2. Avtomobilda ishlataladigan ashyolar K.J.Matkarmov, B.J.Mahmudov,A.A.Norqulov ” Yangi asr avlod“
3. Akilov A.A. Avtomobilning umumiyl tuzilishi: Darslik / Akilov A.A. va boshq. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012